



ILK O`SPIRINLIK DAVRIDAGI PSIXOLOGIK-FIZIOLOGIK O`ZGARISHLARNING YUZAGA KELISHIGA SABAB BO`LUVCHI OMILLAR

Nurmatova Xayrinssha Obidovna

Namangan viloyati Pop tumani 33-maktab psixologi

Annotatsiya: O`siprin o`quvchida o`zini anglash zamirida o`z-o`zini tarbiyalash istagi tug'iladi va bu ishning yo'llarini topish, ularni kundalik turmushga tadbiq qilish ehtiyoji vujudga keladi. O`zlariga ma'qul ma'nnaviy-psixologik qiyofaga ega bo`lish uchun oqilona o`lcham, mezon, vazifalarini bajaruvchi barkamol, mukammal timsol, namuna, yuksak orzu tasvirini qidiradilar.

Kalit so`zlar: samimiylilik, tashabbuskorlik, faollik, mehnatsevarlik, tetiklik, xazilkashlik va yangilikni xis etish, o`z kuchiga ishonch, ruhiy holat, tushkunlik

KIRISH

O`siprin o`quvchilarning fanlarga munosabatlari asosan har qaysi fanning inson duneqarashidagi roliga, bilish faoliyatidagi va ijtimoiy ahamiyatiga, amaliy xususiyatiga, o`zlashtirish imkoniyatiga va uni o`qitish metodikasiga bog`liq bo`ladi.

O`siprinlarda sezgirlik, kuzatuvchanlik takomillashib boradi, mantiiqiy xotira, eslab qolishning yo'l va vositalari ta'lim jarayonida etakchi rol o`ynay boshlaydi. O`siprinlar topshiriqlarni bajarishda, ularning ma'nosi hamda mohiyatini to`la anglab ish tutadilar, eslab qolish, saqlash, esga tushirish jarayonlarining samarali usullaridan unumli foydalanadilar. Ilk o`siprinlik tafakkurining sifatini uning mazmundorligi, chuqurligi, kengligi, mustaqilligi, samaradorligi, tezligi tashkil qiladi. Tafakkurning mazmundorligi deganda, o`siprin ongida tevarak atrofdagi voqelik bo'yicha muloxazalar, muhokamalar va



tushunchalar qanchalik joy olganligi nazarda tutiladi. Tafakkurning chuqurligi deganda, moddiy dunyodagi narsa va xodisalarning asosiy qonunlari, xossalari, sifatlari o'zaro bog'lanishi va munosabatlari o'spirinning fikrlashida to'liq aks ettirish tushuniladi. Tafakkurning kengligi esa o'zining mazmundorligi va chuqurligi bilan bog'liq bo'ladi.

O'quvchilar mакtabda fanlarning asoslаридан bilim olадilar, har qaysi o'spirin fizika yoki matematika bilan tanishадilar. Biroq ularning hammasи keljakda fizik yoki matematik kasbini egallashni xoxlayvermaydi. Mакtabda er kurrasini o'рганилadi, biroq barcha o'quvchilar sayyox bo'lishni istamaydi.

Katta yoshdagi mакtab o'quvchilarидан biror o'quv faniga ishtiyok natijasida ularga har-xil kasblarga qiziqish vujudga keladi.

Yuqori sinf o'quvchilarini qiziqishlari, mayllari, intilishlari, qobiliyatлari, iste'doddлari asosida tanlagen kasblariga to`g`ri yo`naltirish o'spirinlar uchun katta hayotiy masaladir. O'spirinlarga o'qituvchilar, ota-onalar jamoatchilik, o'z kasbining ustalari, murabbiylar alohida e'tibor berishlari kerak.

O'rta mакtabni bitirgunicha hamma o'quvchilar kasbini qat'iy tanlaydi deyish mumkin emas. Kasb-hunarga har-xil munosbatlar hosil bo'lishining asosiy sababi mакtabda o'qish davrida kasb tanlash bo'yicha turli xil niyatlar paydo bo'lishidir.

Kasb tanlashga yo'llash va kasblarni targ'ib qilish usullаридан yana biriko'rsatmali vositalar, ya'ni fotostendlardan, kitoblar ko'rgazmasidan, yosh rassom va tabiatshunoslar ijodi faoliyatining mahsulidan, naqqoshlik va texnika to'garagi ishlaridan foydalanishidir. Bundan tashqari muzeylarga ekskursiyalar uyushtirish orqali ham ayrim kasblarga qiziqish uyg'otish mumkin.

Mehnat psixologiyasining mutaxassisлari kasbga yo'naltirishning boshqacha usullарini: barcha fanlarni o'qitishning politexnik jihatini chuqurlashtirishni; tabiiy matematik fanlardan atrofdagi ishlab chiqarishdan ob'ekt sifatida foydalanishni; ijtimoiy turkumdagи fanlarni o'qitishda



o'lkashunoslik materiallarini qo'llab o'quvchilarning kasbga qiziqishini oshirishni; mehnatga ishtiyoq uyg'otishni; darslarda kasblar haqida axborotlar berib borishni; mehnat sohalari bilan o'quvchilarning mustaqil tanishishi uchun sharoit yaratishni tavsiya etmoqdalar.

O'spirinda o'zining ruhiy dunyosini, shaxsiy fazilatlarini, aql-zakovatini, qobiliyati hamda imkoniyatini aniqlashga intilish kuchayadi. Bu yoshdag'i o'quvchilarning o'zini anglashga aloqador xususiyatlari mavjud. Ular avval, o'zlarining kuchli va zaif jihatlarini, yutuq va kamchiliklarini, munosib va nomunosib qiliqlarini aniqroq baholash imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'spirin o'smirga qaraganda o'z ma'naviyati va ruhiyatining xususiyatlarini to'laroq tasavvur eta olsa ham, ularni oqilona baholashda kamchiliklarga yo'l qo'yadi.

Natijada u o'z xususiyatlariga ortiqcha baho berib, manmanlik, takabburlik, kibrilanish illatiga duchor bo'ladi, sinf va pedagoglar jamoalarining a'zolariga g'ayritabiyy munosabatda bo'la boshlaydi. Shuningdek, ayrim o'spirinlar o'z hatti-harakatlari, aqliy imkoniyatlari va qiziqishlariga past baho beradilar va o'zlarini kamtarona tutishga intiladilar. O'smirlik yoshidagi boladan yana bir xususiyat-murakkab shaxslararo munosabatlarda aks etuvchi burch, vijdon xissi, o'z kadrqimmatini e'zozlash, sezish va faxmlashga moyillikdir. Masalan, o'spirin yigit va qiz sezgirlik deganda nozik, nafis xolatlarning farqiga borish, zaruratni anglash, xolisona yordam uyushtirishni, shaxsning nafsoniyatiga tegmasdan amalga oshirishni tushunadi.

O'spirin o'zining ezgu niyatini baholashda jamoada o'z o'rnini belgilash nuqtai-nazaridan yondoshadi, chunonchi, «o'zim tanlagan mutaxassislikka yaroqlimanmi?», «Jonajon Respublikamga, ota-onamga munosib farzand bo'la olamanmi?», «Jamiyatning taraqqiyotiga o'z ulushimni qo'sha olamanmi?» degan savollarga javob qidiradi. O'quvchida o'zining fazilati to'g'risida yaqqol tasavvur hosil qilish uchun o'qituvchi unga juda ustalik, ziyraklik bilan yordam berishi lozim. Shundagina jamoada ustozga, do'stlariga chuqr xurmat, minnatdorchilik tuyg'ulari uyg'onadi.



Mazkur maqolani yoritish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning tarixi va ma'naviy merosini o'rganishga oid bergen uslubiy ko'rsatmalari hamda, R.Z. Asomovaning "Kasb tanlash motivasiyasi va uning dinamikasi" nomli kitobi tadqiqotning nazariy-uslubiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. Ta'lim psixologiyasi va uning xususiyatlari haqida tahlil olib borildi.

O'spirin o'quvchida o'zini anglash zamirida o'z-o'zini tarbiyalash istagi tug'iladi va bu ishning yo'llarini topish, ularni kundalik turmushga tadbiq qilish ehtiyoji vujudga keladi. O'zlariga ma'qul ma'naviy-psixologik qiyofaga ega bo'lish uchun oqilona o'lcham, mezon, vazifalarni bajaruvchi barkamol, mukammal timsol, namuna, yuksak orzu tasvirini qidiradilar.

O'spirinda ideallar bir necha ko'rinishda namoyon bo'lishi va aks etishi mumkin.

Masalan, ular taniqli kishilarning qiyofalari, badiiy asar qahramonlari timsolida o'zlarida yuksak fazilatlarni gavdalantirishni orzu qiladilar. Bu orzular mazmun jihatidan o'spirin yigitlar va qizlarda farq qilishi mumkin. Masalan, qizlar ko'pincha mehnatkash ayolning, jozibali, nazokatli, iboli, iffatli jamoat arbobining, badiiy asar qahramonining xususiyatlari mujassamlashgan qiyofalarini ideal darajaga ko'taradilar. Ammo ayrim o'quvchilar tarixiy shaxslarning, masalan, baquvvat yo'lto'sar, xiylagar quv josus va boshqalarning salbiy sifatlariga taklid qilishga ham moyil bo'ladilar.

Kuzatishlar va hayot tajribalarining ko'rsatishicha, ba'zi xollarda ilk o'spirinlar o'zlarini qo'rmas, jasur qilib ko'rsatishga, noo'rin harakatlarga moyil bo'ladilar.

Ilk o'spirinlar ma'naviy xislatlarga, ahloqiy mezonlar mohiyatiga jiddiy munosabatda bo'ladilar. Masalan, burch, vijdon, g'urur, qadr-qimmat,



faxrlanish, ma'suliyat, or-nomus kabi tushunchalarni chuqur tahlil qila oladilar. Lekin hammalari emas. ahloqiy ma'naviy qarashlar, tasavvurlar shakllanishi uchun pedagoglar sog'lom muxit yaratish, barqaror shaxsni tarkib toptirish uchun doimo izlanishlari zarur. Ayrim munozarali tadbirlar puxta o'ylab tashkil qilinishi, ayrim chet el filmlari muxokamasi shular jumlasiga kiradi. Ijtimoiy hayotda uchraydigan yaramas yurish— turishlarga, illatlarga zarba berish pedagoglar jamoasining muhim vazifasi hisoblanadi. O'spirinlarda balog`atga etish tuyg`usi takomillashib borib o'zining o'rnini belgilash va ma'naviy dunyosini ifodalash tuyg`usiga aylanadi. Bu xol uning o'zini alohida shaxs ekanligi, o'ziga xos xislatini tan olinishini istashida aks etadi.

XULOSA

Bu yoshda shaxs sifatlari shakllanishida muktab muhiti, ayniqsa sinf jamoasi, rasmiy va norasmiy tengqurlar kuchli ta'sir etadi. Muktab va sinf jamoalari ta'sirida matonatlilik, jasurlik, sabr-toqatilik, kamtarlik, intizomlilik, xalollik, hamdardlik kabi fazilatlar takomillashadi va xudbinlik, loqaydlik, munofiklik, laganbardorlik, dangasalik, g'ayirlik singari illatlarning barham topishi tezlashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Azizzxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.T.: Nizomiy, 2003.
2. G'oziev E.«Psixologiya». Toshkent. «O'qituvchi». 1994.
3. Yosh va pedagogik psixologiyadan praktikum. T.1991.
4. G'oziev E. «Pedagogik psixologiya asoslari». Toshkent. 1997.
5. Ishmuhammedov R.Abduqodirov A.Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar.Toshkent -2008.

